

Nishanova Aziza Mirzaxmadovna
TURAN INTERNATIONAL UNIVERSITY

Qutupova Nafisa Toxirjon qizi
TURAN INTERNATIONAL UNIVERSITY

SBT-22-01-guruh talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mamlakatimizdagi ta'lim tizimining tutgan o'rni hamda ta'lim tizimining rivojlanishida boshlang'ich ta'limning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi haqida ma'lumotlar keltirilib o'tiladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuvning naqadar samarador ekanligi haqidagi bir qancha ma'lumotlar va fikrlar ham o'quvchilar e'tiboriga havola etiladi.*

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, boshlang'ich ta'lim, reja, kuzatuvchanlik, ot, fe'l, sifat, son.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida pedagog kadrlarning oldiga qo'yiladigan osiy talab fikrlash doirasi keng bo'lgan, ilmiy dunyoqarashi shakllangan, ma'lumotlar oqimidan o'ziga kerakli bo'lganlarini saralab olish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash vazifalarini qo'ymoqda. Hozirgi davrda zamon chig'irig'idan omon chiqishning asosiy va yagona yo'li ta'lim tizimini kundan kunga rivojlantirish hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning: “Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi”, - degan fikri zamonaviy ta'li konsepsiyalari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini yuksaltirish, milliy g'oyani ro'yobga chiqaradigan barkamol avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.[1] Mazkur vazifani, ya'ni har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni voyaga yetkazish vazifasini ro'yobga chiqarish uchun bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Buning yaqqol dalili sifatida “Ta'lim to'g'risidagi qonun”ni keltirishimiz mumkin. Ta'lim tizimini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining ustuni ekanligini anglab yetgan xalq rivojlanishga yuz tutadi.

ASOSIY QISM. Asosiy maqsadimiz ta'lim tizimini rivojlantirish ekan, xo'sh, bu yo'lda nimalar qila olamiz? Dastlab, mazkur tizimning asosiy bo'g'inlarini aniqlab olishimiz lozimdir. Bu o'rinda esa ta'limning asosiy bo'g'ini sifatida boshlang'ich ta'limni e'tirof etishimiz lozim. Boshlang'ich ta'lim bu nafaqat ta'lim tizimining, balki jamiyatning asosiy fundamenti hisoblanadi. Bugungi kunda, ya'ni axborotlashish asrida aqliy faoliyat, xususan, pedagogik faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislar ta'lim mazmuni, metodlari, qouniyatlari, ta'limni tashkil qilish shakllari, pedagogik texnologiyalar va ularning turlarini, ularni dars jarayonida qo'llay bilishi, ya'ni sodda qilib aytganda, kuchli intellekt va tajribaga ega bo'lishlari lozim. Shu o'rinda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bir qator xususiyatlari bilan tanishishimiz lozim. Chunki boshlang'ich ta'limning ta'lim tizimida qanchalik muhim o'rin tutishini o'rganish uchun mazkur davrda, ya'ni boshlang'ich ta'lim jarayonida

bolalarning qaysi xususiyatlari qay darajada rivojlanishini bilib olish zarur. Maktabga kelish arafasida bolaning soʻz boyligi oʻz fikrini bayon qila oladigan darajada ortadi. Boshlangʻich sinf yoshidagi bolalar nutqi, asossa, ot, feʼl, sifat, son va bogʻlovchilardan iborat boʻladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni oʻzlashtirishi maʼlum bir faoliyatga aylana boradi. Mazkur yoshdagi bolalarning yana bir oʻziga xos xususiyati bola nutqida oʻz fikrini bayon etibgina qolmay, balki oʻz suhbatdoshiningdiqqatini oʻziga jalb qilish uchun ham gapiradilar. Bu jarayonda ularda kelajakda oʻz kasbida erkin ishlash koʻnikmalari, fikrlarini bayon eta olish koʻnikmalari maʼlum darajada shakllanadi. Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jummalarni toʻgʻri tuzish va soʻzlarni toʻgʻri yozishga maʼlum talablar qoʻyilganligi bilan xarakterlanadi. Bola soʻzlarni qanday eshitgan boʻlsa, shundayligicha yozmasligini bilishi, ularni toʻgʻri talaffuz etishga va yozishga oʻrganishi zarur. Yozma nutqni egallash asosida bolalarda turli matnlar haqidagi maʼlumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlagani bois, bolada oʻzi yozgan fikrlarni, soʻz va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan boʻladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi oʻquvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun maʼlumot toʻplash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni maʼlum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jummalarni toʻgʻri tuzish, aynan shu mazmunga mos soʻzlarni topish va ularni toʻgʻri yozish, tinish belgilarini toʻgʻri qoʻyish, oʻz holatlarini topa olish va toʻgʻrilash aqliy rivojlanishning koʻrsatkichlaridan hisoblanadi. Boshlangʻich taʼlimdagi oʻqish faoliyati kichik maktab yoshidagi oʻquvchining aqlidroki, sezgirliги, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Taʼlim jarayonida ularning bilimlar koʻlami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar oʻz idroklarining aniqligi, ravonligi, oʻtkirliги bilan boshqa yosh davlaridagi insonlardan farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, oʻta sinovchanlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini oʻzlashtirish qobiliyatiga ega boʻladilar. 7 – 10 yoshdagi oʻquvchining idroki, uning xatti-harakati, oʻyini va mehnat faoli7 – 10 yoshdagi oʻquvchining idroki, uning xatti-harakati, oʻyini va mehnat faoliyati bilan bevosita bogʻliqdir. Oʻquvchi oʻzining ehtiyoji, mayli, qiziqish va intilishi, turmush sharoitiga mos ravishda, shuningdek, oʻqituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qila oladi. Shu sababli mazkur davrda, yaʼni boshlangʻich sinfda oʻqituvchi bolalarga toʻgʻri yoʻnalish berishi. Ularning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakdagi kasbiga toʻgʻri yoʻnaltirishi lozim. Agar boshlangʻich taʼlimda oʻquvchilar bilan ishlash jarayoni toʻgʻri yoʻlga qoʻyladigan boʻlsa, bu oʻquvchilarning kelajakdagi taʼlim olish jarayoniga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan birga, ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli oʻqish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasining yuqori boʻlishi juda zarurdir. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrofdagi, hayotdagi narsalarning kichiklashtirib tasvirlanganini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda

estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki bola shu rasmlar orqali olam go‘zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o‘z munosaabtini bildiradi. Mazkur xususiyat bolada o‘z didiga ko‘ra kyim tanlash, hammaning ham fikriga qo‘shilmasdan, o‘z mustaqil fikrlarini erkin va ravon ifodalash, o‘zi uchun qulay sharoit yaratish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu esa bolaning kelajakdagi hayotida ancha katta rol o‘ynaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatni irodaviy zo‘r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo‘lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko‘proq rivojlangan bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi o‘quvchida beixtiyr his-tuyg‘ular uyg‘otadi, irodaviy zo‘riqishsiz, osongina fan asoslarini egallashga imkon beradi. Boshlang‘ich ta’limda turli metodlar, usullar orqali o‘quvchilarni fan materiallariga jalb qilishga, ularni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat etishga xizmat etsin. – Toshkent, “Sharq”, 1998.
2. M. G. Davletshin va boshqalar. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2007.
3. N. Atayeva va boshqalar. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “fan va texnologiya”, 2012.
4. Malikova, D. (2020). Deposit base of Uzbekistan commercial banks. World Scientific News, (143), 115-126.
5. Malikova, D. (2020). Consulting services market of Uzbekistan. World Scientific News, (145), 168-179.
6. Malikova, D. (2023). METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ECONOMIC SECURITY OF BANKS. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects, 96-98.
7. Malikova, D., & Ziyadullayeva, M. (2023). INFLATION: THEORETICAL ASPECTS AND ANALYSIS OF PRICE CHANGES IN UZBEKISTAN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(2), 204-207.
8. Malikova, D., & Abduganieva, F. (2023). The Role of Consulting in the Modern Economy. Global Scientific Review, 12, 1-4.
9. Malikova, D., & Rakhmonov, N. (2023). MONETARY AGGREGATES AND THEIR IMPORTANCE IN THE ECONOMY.
10. Malikova, D., & Ochilova, I. (2023). Analysis of the Current State of Deposit Operations of Commercial Banks of Uzbekistan. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 28-31.